E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

RUS VA O`ZBEK TILLAR GRAMMATIKASINI QIYOSLASH

Boboqulova Aziza G'ulom qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zga tilli guruhlarga rus tili ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Ruziyeva Zilola Mustafayevna**

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek va rus tillarnnnig grammatik tuzilishi, turli til sistemalariga mansubligi, Xususan, o‘zbek tili agglyutinativ tillar gruppasiga mansubligi, o‘zbek va rus tillaridagi ikkinchi darajali bo‘laklar va ega gapning mustaqil bo‘lagi haqida ma’lumotlar ken manbalar asosida taxlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Predmet, sifat, belgi, gap, aniqlovchi, harakat, to‘ldiruvchi hol, vosita, obyekt.

KIRISH

Ma’lumki, o‘zbek va rus tillarning grammatik tuzilishi turli til sistemalariga mansubligi bilan xarakterlanadi. Xususan, o‘zbek tili agglyutinativ tillar gruppasiga kiradi, shuning uchun so‘zga har qanday affiks ulanganda ham so‘zinig dastlabki shakli saqlanadi, ma’nosiga putur yetmaydi, unga ketma-ket ulanayotgan affiksal so‘zlar bir-biridan osonlik bilan ajraladi.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, otga bog‘lanib, predmetnnng sifati, belgisini bildirgan gap bo‘laklarianiqlovchi (определение) deb, harakat vositasi, ob’ekti, holatini bildirgan gap bo‘laklari to‘ldiruvchi (дополнение) va hol (обстоятельство) deb ataladi. To‘ldiruvchilar vositali kelishikdagi predmet va shaxs nomlari bilan ifodalanib, harakat vositasn yoki ob’ektini bildiradi: Akamga aytaman.— Скажу брату kabi. Hollar harakatiing payti, o‘rni, sababi, maqsadi kabilarni bildiradigan va asosan ravishlar va vositali kelishiklarda kelgan o‘rin, payt nomlari bilan ifodalaiadi: Ertaga keladi. Приедет завтра kabi. Ikkinchi darajali bo‘laklarning bu xususiyatlari o‘zbek va rus tillarning ikkalasi uchun umumiydir. O‘zbek tilida aniqlovchilar otga ergashuv shakliga ko‘ra asosan ikki gruppaga— sifatlovchilar va qaratqichlarga ajraladi:

1. Sifatlovchilar sifat, son, sifatdosh, ravish hamda sifat vazifasidagi ot va olmoshlar bilan ifodalanadi: Bog‘da chiroyli gullar ochilgan. Ukam beshinchi sinfda o‘qiydi. Sen magazindan qanday kitob olding? Uxlayotgan bolaning yonida qattiq gapirmang. Shuncha daftarni qaerdan olding? kabi. Sifatlovchilar sifatlanmish otga bog‘lashuv yo‘ln bilan ergashadi. Bu xil sifatlovchilar rus tilida ko‘pincha moslashgan aniqlovchilarga ekvivalent bo‘ladi: Azamat qizil galstuk oldi.— Азамат получил красний галстук. Ikkinchi kurs studentlari imtihonlarni topshirib bo‘lishdi.— Студенты второго курса сдали экзамен. O‘tgan kunlarni esladik.— Мы вспомнили минувшие дни. Bunday qalamlar qaysi magazinda bor? — В каком магазине имеются такие карандаши? Magazinda tilla soat bor — В магазине имеются золоте часа kabi. Sifatlovchilar -lik, -li, -siz qo‘shimcha yasama sifatlar bilai nfodalanganda, unga rus tilida nz yokn с предлоги родителний (баъзан творителъний) kelishikdagi ot ekvivalent bo‘ladi: moskvalik mehmonlar — гости из Москвы. soqolli kishi — человек с бородой. muqovasiz kitob — книга без обложки kabi. O‘zbek tilida sifatlovchilar so‘z birmkmasi bilan ham ifodalanadi: Ertalabdan yog‘a boshlagan qor kechga yaqin tindi. Снег, начавшийся утром, прекратился только к вечеру kabi. Murakkab sifatlovchilar vazifasida potensial ega va kesimdan nborat bo‘lgan birikmalar ham kelishi mumkin. Masalan: Ahmad olgan miltiq (ружё, которое взял Ахмед), soqoli uzun odam (человек с длинной бородой) kabi. Шуни алоҳида таъкидлашимиз жоизки Ўзбек ва рус тилларида эга гапнинг мустақил бўлаги бўлиб, турли сўз туркумлари билан ифодаланади. Предикатив эга қиёс қилинаётган иккала тилда ham предмет ёки шахсни билдирувчи hамда айрим сўз ёки сўз бирикмаси билан ифодаланган бош бўлакдир. У англатган предмет ёки шахснинг hаракати ёхуд белгиси кесим орқали (предикация йўли билан) аниқланади. Гапнинг эгаси кесим томонидан аниқланганлиги учун предикатив эга деб аталади ва қаратқич эгадан фарқ қилади.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Predikativ ega vazifasida kelgan har bir so‘z yoki so‘z birikmasi ikkala tilda ham bosh kelishik (именителнй падеж) so‘rog‘iga (kim?, kimlar? – kto?; nima?, nimalar? – что?) javob bo‘ladi.

Rus tilida predikativ ega o‘zbek tilidagi kabi ot, sifat, son, olmosh, fe’l va boshqa so‘z turkumlari hamda turli so‘z birikmalari bilan ifodalanadi.

Rus tilida predikativ eganing o‘ziga xos eng muhim grammatik xususiyatlari quyidagilar: a) ega vazifasida kelgan konkret so‘zning (asosan otning) grammatik kategoriyalariga kesimning grammatik formasi qat’iyan tobe bo‘lishi shart, binobarin, kesim ko‘rsatkichining shakllanishi egaga qat’iy bog‘liq; b) ega ko‘p gaplarda konkret predikativ shaxs kategoriyasini (ya’ni uch konkret shaxsdan birini) ifodalaydi .

Kesim predikatsiyalovchi (ya’ni aniqlash, takidlash, inkor qilish kabi yo‘llar bilan gap hosil qiluvchi) kategoriya sifatida quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

Predmetning harakatining bildiradi: Karim ketdi, Карим ушёл, kabi.

Predmetning belgisi. Sifati. Xusisiyatini bildiradi. Egasiz gapda kesim ma’lum bir predmet yoki hodisaning hozir yoki doim mavjud ekanligini o‘tgan yoki kelasi zamonda bo‘lishini ifodalashi mumkin. Masalan: o‘zbek tilida: Qish payti edi.

O‘zbek va rus tillarida kesim o‘ziga xos grammatik xususiyatlarga ham ega.

O‘zbek tilida kesim sodda va murakkab bo‘lib, turli predikativ (kesimlik) ko‘rsatkichlar bilan shakllanadi. Kesim vazifasida kelgan so‘zlarda shaxs – son qo‘shimchalari, modallik va zamon ko‘rsatkilari bo‘ladi.

Fe’lning buyruq mayli formasi bilan ifodalangan kesimlar. Bu xil kesimlar, asosan, ikkinchi shaxs birlik va ko‘plikda ishlatiladi. Birlikda ular –и, -й, -, - ис, -йся, - ся affikslari bilan shakllanadi. (иди, читай, сяд, учис, умойся, оденся kabi), ko‘plikda esa shu ko‘rsatkichlarga –te qo‘shiladi yoki –итес, -йтес, -этес, - тес qo‘shimchalari ishlatiladi (идите, читайте, сядте, учитес, умойтес, одентес kabi).

Rus tilidagi kesimlar yana quyidagi xususiyatlarga ega:

Rus tilida infinitiv kesim ega bilan moslashmaydi. U egali va egasiz (shaxssiz) gaplarning kesimi vazifasida keladi.

Egali gaplardagi infinitiv kesim: ta’kidlash ma’nosini ifodalaydi: Moya sel-poluchit vыshee obrazovanie. Mening maqsadim oliy ma’lumot olishdir; Tilshunos olim O.Azizov ikkinchi darajali bo‘laklarni ikki guruhga 1) otga ergashuvchi ikkinchi darajali bo‘laklar 2) fe’lga ergashuvchi ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratgan edi.

XULOSA VA MUNOZARA

XXI asrdagi o‘zbek tilshunosligida ikki tilda o‘rganish yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday vaziyat ona tilini rus tili bilan chog‘ishtirib o‘rganishni, tillarga xos umumiylik asosida qiyosiy o‘rganishda ikki tilning umumiy va xususiy tomonlarini aniqtasavvur qilishda va ulardan nutqda to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Azizov O. Safaev A. Jamolxonov. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. T., 2016.
2. Hamraeva Y., Elmurodova L. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. Qarshi: «Nasaf», 2007.
3. Kissen I.A. Rus va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi kursi. T., 2019 yil.
4. www.ziyonet.ru